

**B+ DARAJADAGI INGLIZ TILI O'RGANUVCHILAR
UCHUN INSHO (ESSAY) YOZISH KO'NIKMALARINI
SHAKLLANTIRISH USULLARI**

Talibjanova Aziza Lutfullayevna

O'zDJTU o'qituvchisi

Qurbonboyeva Dilafruz Sherimmat qizi

O'zDJTU talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz tilida insho (essay) yozish ko'nikmasini shakllantirish haqida ma'lumot beriladi. Bundan tashqari uni yozishni odat sifatida shakllantirish, unga amal qilish haqida foydali maslahatlar aytildi. Uni yozish bilan bog'liq keng tarqalgan muammolar va ularga samarali yechimlar ham sanab o'tiladi. Shuningdek, maqoladan uni yozish tartibi ham o'rinn olgan.

Kalit so'zlar: insho, inliz tili o'rganuvchi, reja, parafraza qilish, o'z ishini tekshirish.

Annotation: This article provides information on how to write an essay in English. In addition, there are useful tips on how to make writing habit and follow it. Common writing problems and effective solutions are also listed. The procedure for writing it is also included in the article.

Keywords: essay, English language learner, plan, paraphrasing, self checking

Xorijiy tillarni o'rganish hozirgi kunda muhim ahamiyat kasb etmoqda va dunyoning deyarli barcha qismida bunga alohida urg'u berilmoqda. Shu jumladan, O'zbekistonda ham turli xil xorijiy tillarga qiziqish kuchayib, ularni o'rganuvchilar soni kun sayin ortib bormoqda. Til o'rganish, ayniqsa, chet tillarini o'rganish hamisha yetarlicha qiyinchiliklar tug'diradi. Ko'plab ingliz tili o'rganuvchilar o'qib tushunish, eshitib tushunish yoki gapirish ko'nikmalaridan yaxshigina xabardor va yetarlicha bilimlarga ega bo'lishadi. Ammo navbat yozish ko'nikmasiga kelganda ular ikkilanib qolishadi. Avvalo, insho (essay) o'zi nima? Uni nima uchun yozish kerak? Ingliz tilida insholar, asosan, IELTS yoki CEFR imtihoni topshirilayotganda yoziladi. Uning o'zbek tilidagi inshodan farqi rejasi bo'lmaydi, unda yozuvchining shaxsiy qarashlari, muammolarga yondashuvlari, yechimlar topishi, vaziyatga bildirgan munosabati yoritiladi. Ingliz tilida 3 ta insho turi farqlanadi: "opinion", "points to consider", "for & against" turlaridir. Hammasi uchun umumiy jihat shundaki, barchasi kirish, assosiq qism va xulosadan iborat bo'ladi. Ingliz tilida insho yozish orqali insonning nafaqat tilini, grammatikani bilish darajasi, balki lug'at boyligi, dunyoqarashi va aqliy salohiyati ham tekshiriladi.

Har bir yangi ingliz tilini o‘rganuvchi shaxs shu tilda insho yozishda umuman olganda matn tuzishda bir qancha qiyinchiliklarga duch keladi. Ular orasida eng keng tarqalganlari “paraphrasing” lug‘at boyligi yetishmasligi hamda kirish qismi va xulosa bir-biridan tubdan farq qilishidadir. Bu muammolarga samarali yechimlardan biri shundaki, har kuni yaxshi yozilgan yoki 8+ bo‘lgan namunalar o‘qish va uqishdir. Chunki buni kundalik bajarish davomida ham strukturani o‘rganish, ham yuqoridagi muammolarga qarshi turish, ularning yechimini topish, yaxshi yozishga erishish mumkin. Bundan tashqari ikkinchi yechim bu ingliz tilida yozishni shakllantirish uchun kuniga kamida bittadan insho yozish ham tavsiya etiladi. To‘g‘ri , birdaniga uni shunchaki yozib ketish qiyin, ammo bunday vaziyatlarda orqaga chekinmasdan insho o‘rniga uning mavzusini olib parafraza qilish tavsiya etiladi. Kuniga kamida bitta mavzuni parafraza qilish ham qisqa muddatda uni to‘liq yozish uchun yetarlicha ko‘nikmani shakllantiradi. Bu usulni kundalik hayotda qo‘llash natijasida ingliz tilida insho yozishni qandaydir katta qiyinchilik sifatida emas , balki odatiy hol kabi qabul qilishni o‘rganish mumkin. Har kuni aynan bir payt misol uchun tong faqat insho yozish uchun belgilab qo‘yilsa va shunga qat’iy amal qilinsa insho yozishdagi qiyinchiliklar o‘z-o‘zidan yo‘qoladi.

Yuqorida ta’kidlanganidek ingliz tilidagi inshoda reja yozilmaydi, lekin bu degani rejalarsiz yoziladi degani emas, ya’ni u asosiy varoqqa yozilmaydi. Inshoni boshlashdan oldin qoralamaga reja tuzib olinadi va shu reja asosida yoziladi. Ko‘pchilik rejalarsiz yozishni afzal ko‘radi va shunday qiladi. Biroq aslida ular ham reja tuzadi ya’ni aynan qoralamaga yozmasalarda o‘zları bilmagan holda ongostida tuzilgan rejalar aasosida mavzuni yoritadilar. Ko‘p hollarda rejalgarda amal qilib yozilganlari rejasiz yozilganlaridan ko‘ra har tomonlama ustunroq bo‘ladi. Chunki, u mavzudan chiqmagan holda , ma’lum bir qolip asosida yozishga yordam beradi. Shuning uchun inshoni boshlashdan oldin 5 daqiqa vaqtini reja tuzishga sarflash tavsiya etiladi. Imtihindon bu vaqtini tejashga yordam beradi. Inshoning kirish qismi muhim ahamiyatga ega shuning uchun u o‘quvchi (reader)ni o‘ziga jalb qila olishi kerak. Bu qismda mavzu nima haqida ekanligi asosiy qismda nima haqida so‘z borishi haqida qisqacha (bir nechta gapdan oshmagan holda) ma’lumot berib o‘tiladi.

Keyin navbat asosiy qismga keladi. Bunda inshoning asosiy mazmuni yoritiladi. Uni yozayotganda turiga e’tibor berish talab qilinadi. Sababi berilgan insho turi “opinion” bo‘lsa-yu uni “points to consider“ qolipida yozib chiqilsa xatolik hisoblanadi. Bu qismni boshlashda yordam beradigan bir qancha foydali iboralar mavjud: To begin with..., On the one hand..., On the other hand..., Firstly..., First and foremost..., In the first plase... va boshqalar. Turli xil insho turlarida har xil so‘z va iboralar qo‘llash mumkin. Masalan, “opinion” turida: I firmly believe that..., In my opinion..., In my view..., I consider that... kabilarni qo‘llagan ma’qul. Bular yozuvchining o‘z shaxsiy qarashlarini ifodalashda yordam beradi. Shuni unurtmaslik lozimki, insho mavzudan

chetlashmagan holda yozilishi kerak. Asosiy qismda har bir fikrdan keyin daliliy gaplar (supporting sentences) , shu jumladan, misollar ham keltirish kerak. Inshoni faqatgina faktlar asosida yozish ham unchalik to‘g‘ri emas. Chunki, bu o‘quvchini zeriktirib qo‘yishi mumkin. Qo‘srimcha fikr bildirish uchun foydali iboralar: Additionally..., Furthermore..., Besides..., Moreover... kabilardir.

Xulosani yozishda e’tiborli bo‘lish talab etiladi negaki, kirish qismda yoki asosiy qismda bo‘magan yangi ma’lumot xulosada yozilmaydi. U asosan kirish qiamni parafraza qilish orqali yoziladi. Xulosa yozilgandan so‘ng insho to‘liq yakunlanadi. Lekin o‘z-o‘zini tekshirish (self checking) esdan chiqmasligi kerak. Buni qilish va shu orqali o‘z xatolarni tushunish va keyingi safar shularni takrorlamaslikka harakat qilish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Avezova D. “O‘quvchilarda esse yozish malakasini shakllantirish zarurati” , 2024. 91b.
2. Ergashova, S., Yadgarova, L., Ziyodulloeva, M., Norova, F., & Yuldasheva, N. (2022). The principles of using computer technologies in the formation and development of students' language skills. Journal of Pharmaceutical Negative Results, 13(Special Issue 6). <https://www.pnrjournal.com/index.php/home/article/view/2116>
3. Erkinov S. Muzaffarova N. “Talabalarning ingliz tilida yozish ko‘nikmalarini jadal rivojlantirish” 2023 y. 440b.
4. Isakulova, B. K. (2023). Teaching a foreign language through didactic games to preschoolers. *GOLDEN BRAIN*, 1(11), 234–239. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/3161>
5. Isakulova, B. K. (2023). The importance of teaching children English with early childhood with the help of game learning methods. *International Journal of Advanced Research in Education, Technology and Management*, 2(4), 352–360. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7813228>, <https://ijaretm.com/index.php/ij/article/view/339>
6. Jumayeva G. “Ingliz tilida mukammal yozish qobiliyatini shakllantirish sirlari” 2024 y.
7. Obidova D. “Esse yozish qoidalari va tavsiyalar haqida metodik tavsiya” 2022y. 440b.
8. Sharipova O. “Ingliz tilida ese qanday yoziladi?” 2020
9. Tuxtayevich, K. I. ., Ahmatovna, P. S. ., Turgunbayevna, M. N., Rasulovna, R. M. ., Qizi, T. F. R. ., & Qizi, Y. N. A. . (2024). Different Approaches to Enhance Critical Thinking in Digital Education. *SPAST Reports*, 1(7). <https://spast.org/ojspath/article/view/5086>